

SURXONDARYO VILOYATINING JANUBIY TUMANLARIDAGI CHUMCHUQSIMON QUSHLAR GELMINTOFAUNASI

Qushaqova Dildora Xushbaq qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13801446>

Surxondaryo viloyati janubiy tumanlarida uchrovchi chumchuqsimon qushlarda parazitlik qiluvchi gelmintlarning turlar tarkibini, ularning hayotiy faoliyati va ekologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatini kasb etadi. Chumchuqsimon qushlardagi gelmintozlarning turlar tarkibi, tabiiy beotsenzodagi boshqa qushlar o'rtasidagi parazitlarning almashinishi qonuniyatlarini mohiyatini o'rganish, ularning zararlanish darajasini aniqlash.

Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlaridagi chumchuqsimon qushlar gelmintofaunasining turlar tarkibi, keng tarqalgan dominant turlarining bioekologik xususiyatlarini o'rganishga quyidagicha maqsadlar quyilgan:

1. Chumchuqsimonlar turkumi va ularning gelmint sinflari bilan zararlanish holati.(1-jadval)
2. Chumchuqsimon qushlarda aniqlangan gelmint turlarining taksonomik tahlili.

Tadqiqot jarayonida o'rganilgan chumchuqsimonlar turkumiga mansub bo'lgan qushlar turlari va ularning gelmintlarning sinflar bilan zararlanish ko'rsatgichi

Qush turlari	O'rganilgan qushlar soni	Gelmintlar aniqlangan qushlar soni	Nematoda	Sestoda	Trematoda
Qara qarg'a (<i>Corvus corax</i>)	18	15	+	+	+
Mayna (<i>Akridotheres tristis</i>)	25	23	+	+	+
Dala chumchug'i (<i>Passer montanus</i>)	6	4	+	+	
Uy chumchug'i (<i>Passer domesticus</i>)	3	2	+		
Qaldirg'och (<i>Piraria riparis</i>)	15 ta fekal namunalari	3	+		
Jami	67	47	Umumiy zararlanish ekstensivligi 70,14% ni tashkil etdi		

Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlaridagi chumchuqsimon qushlar gelmintlarining faunistik tahlili

Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlaridagi chumchuqsimon qushlar gelmintlarining tur tarkibi 3 sinfga mansub 23 turdan iborat bo'lib, ular tarkibida 4 ta trematoda, sestodalar 8 ta, nematodalar 11 ta turni tashkil etdi.

Chumchuqsimon qushlarda aniqlangan gelmintlar faunasi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

Trematodalar:

1. *Brachylaemuss fuscatus* (Rudolphi, 1819)
2. *Echinostoma miygawai* (Ishii, 1932)
3. *Echinostoma revolutum* (Frohlich, 1802)
4. *Echinostoma robustum* (Yamaguti, 1935).

Sestodalar:

1. *Amoebotaenia sphenoides* (Railliet, 1892)
2. *Davainea proglattina* (Davainea, 1860)
3. *Fimbraria fasciolaris* (Pallas, 1781)
4. *Raillietina tetragona* (Molin, 1858)
5. *Raillietina penetrans* (Baczynska, 1914)
6. *Sobolevicanthus gracilis* (Zeder, 1803)
7. *Sobolevicanthus collaris* (Botsch, 1786)
8. *Choanotaenia infundibulum* (Blach, 1779).

Nematodalar:

1. *Ascaridia alectoris* (Gagarin, 1954)
2. *Ascaridia galli* (Schrank, 1788)
3. *Dispharynx spiralis* (Molin, 1858)
4. *Dispharynx nasuta* (Rudolphi, 1819)
5. *Eucoleus annulatus* (Molin, 1858)
6. *Oxyspirura schulzi* (Skrjabin, 1929)
7. *Oxyspirura petrow* (Skrjabin, 1929)
8. *Seurocyrnea eurycerca* (Seurat, 1914)
9. *Tetrameres fissispina* (Diesing, 1861)
10. *Capillaria bursata* (Freitas et Almeida, 1934)
11. *Capillaria obsignata* (Madsen, 1954)

Ushbu ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan hududdagi chumchuqsimon qushlar gelmintlarining turlari xilma-xil turlicha. O'rganilgan chumchuqsimon qushlar gelmintlar faunasi bir-biridan farq qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlaridagi chumchuqsimonlar turkumining keng tarqalgan turlaridan mayna (*Acridotheres tristis*), qarg'a (*corvus corax*), dala chumchug'i (*Passer montanus*), uy chumchug'i (*Passer domesticus*), qaldirg'och (*Piraria riparis*) qushlarining gelmintofaunasining faunistik va taksonomik tahlil natijasiga ko'ra 3 sinf, 12 oila, 23 tur gelmintlardan iboratligi aniqlandi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. 2-jild, Hayvonot olami. –T:2019
2. Тангиров Х.Т. Экологический мониторинг гельминтов массовых до диких и

домашних птиц Узбекистана. // Автореферат диссертации на 67 SERVE NO 731 соискание ученой степени кандидата биологических наук. Ташкент-1993.26. е. 4. Тангиров Х.Т.Акмурадова Л.Г. Гельминтофауна голубиных птиц Сурхандарьинской области. // Научно-образовательные электронный Журнал: Образование и наука в XXI веке. Вып. 14. Том-3, 05. 2021. 50 с.

3. Tangirova N.X, Tangirov X.T. O'zbekistonning janubiy hududlarida tovuqsimon qushlarning nematodafaunasi // O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Axborotnomasi. – Nukus, 2020. – № 2. – B. 54-58.